

## ISTIQLOL DAVRI TANQIDCHILIGINING ASOSIY TAMOYILLARI

*Turg'unboyeva Gulhayo*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekistonning istiqlol yillarida shakllangan adabiy tanqidchilikning mazmun-mohiyati, metodologik yangilanishlari va tamoyillari yoritiladi. Mustaqillik davri adabiyotida milliy o'zlikni anglash, tarixiy haqiqatni qayta baholash hamda ijodkor shaxsining badiiy-estetik dunyosini teran talqin qilishga intilish tanqidchilikning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada tanqidchilikda ilmiylik va xolislik mezonlarining mustahkamlanishi, yangicha tahlil uslublarning paydo bo'lishi, adabiy jarayonni yoritishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi hamda ijod erkinligini ta'minlovchi muhitning shakllanishi tahlil qilinadi.

Istiqlol davri tanqidchiligi zamonaviy adabiyotning rivojlanish tendensiyalarini ochib berish, ijodiy maktablar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tadqiq qilish hamda badiiy fikrning yangilanishiga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy tizim sifatida baholanadi.

**Kalit so'zlar:** Istiqlol davri tanqidchiligi, Adabiy jarayon, Milliy o'zlik, Estetik talqin, Xolislik tamoyili, Metodologik yangilanish, Tarixiy yondashuv, Adabiy an'ana, Badiiy tafakkur, Ijod erkinligi.

### ANNOTATION

This article highlights the essence, methodological renewals and principles of literary criticism formed in the years of independence of Uzbekistan. In the literature of the period of independence, the understanding of national identity, reassessment of historical truth and the desire to deeply interpret the artistic and aesthetic world of the creative person are manifested as the main directions of criticism.

The article analyzes the strengthening of the criteria of scientificity and objectivity in criticism, the emergence of new methods of analysis, the harmony of national and universal

values in the coverage of the literary process, and the formation of an environment that ensures freedom of creativity.

Criticism of the independence period is considered an important scientific and practical system that serves to reveal the development trends of modern literature, study the interaction between creative schools, and renew artistic thought.

**Keywords:** Criticism of the period of independence, Literary process, National identity, Aesthetic interpretation, Principle of objectivity, Methodological renewal, Historical approach, Literary tradition, Artistic thought, Freedom of creativity.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются сущность, методологические обновления и принципы литературной критики, сформировавшиеся в годы независимости Узбекистана. В литературе периода независимости основными направлениями критики являются понимание национальной идентичности, переоценка исторической истины и стремление к глубокому осмыслению художественно-эстетического мира творческой личности.

В статье анализируется укрепление критериев научности и объективности в критике, появление новых методов анализа, гармония национальных и общечеловеческих ценностей в освещении литературного процесса, формирование среды, обеспечивающей свободу творчества.

Критика периода независимости рассматривается как важная научно-практическая система, служащая выявлению тенденций развития современной литературы, изучению взаимодействия творческих школ и обновлению художественной мысли.

**Ключевые слова:** Критика периода независимости, Литературный процесс, Национальная идентичность, эстетическая интерпретация, Принцип объективности, Методологическое обновление, Исторический подход, Литературная традиция, Художественная мысль, Свобода творчества.

## KIRISH

Istiqlol davri tanqidchiligining shakllanish zaminlari. O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, adabiy jarayon bilan bir qatorda tanqidchilikning ham mazmuni, metodlari va ilmiy qarashlari tubdan o'zgardi. Avvalgi mafkuraviy cheklovlar bekor qilinib, adabiy jarayonga xolis yondashish, tarixiy haqiqatni qayta anglash va badiiy merosni erkin talqin qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Istiqlol davri tanqidchiligi avvalo quyidagilarga tayanadi: O'zbek adabiyotini jahon adabiy kontekstida ko'rish.

Mafkuraviy bosimdan xoli bo'lgan tanqid Istiqlol davrigacha bo'lgan tanqidchilik ko'proq mafkuraviy tasarrufga xizmat qilgan, ijodkor shaxsi va asarning badiiy-estetik mohiyati ikkinchi o'rinda turar edi. Mustaqillik davrida esa tanqidchilik:

Asarni siyosiy mezonlarga emas, badiiylikka qarab baholash;

Ijodkorning shaxsiy nuqtayi nazariga hurmat bilan qarash;

Erkin fikr va mustaqil tahlilga keng yo'l ochish kabi tamoyillarni qaror toptirdi.

Bu davrda tanqidchi hukm chiqaruvchi emas, balki tahlil qiluvchi, bahs yurituvchi, o'quvchini fikrlashga undovchi ijodiy shaxsga aylandi.

Milliy o'zlik va tarixiy haqiqatni anglash Istiqlol yillarida adabiyotda milliy o'zlikni anglash jarayoni kuchaydi va tanqidchilik ham bu tendensiyani ilmiy-nazariy jihatdan mustahkamladi. Tanqidchilar:

Tarixiy shaxslar, qadriyatlar, an'analar haqidagi badiiy talqinlarni chuqur o'rganish;

Milliy ruh va mentalitetni aks ettiruvchi obrazlar tizimini tahlil qilish;

Xalqning tarixiy xotirasi va adabiy jarayon o'rtasidagi bog'liqlikni ochish kabi masalalarni kun tartibiga chiqardi.

Bu tamoyil adabiy jarayonni yangicha ruhda tushunishga xizmat qildi.

Tanqidchilik nafaqat tahlil, balki tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatga ega hodisa sifatida rivojlandi.

Tanqidchilikning yangicha shakllari Istiqlol davrida tanqidchilik quyidagicha kengaydi:

Internet tanqidchiligi (onlayn sharhlar, bloglar, adabiy platformalar).

Bu jarayon tanqidning ommaviylik va tezkorlik darajasini oshirdi.

Yangi avlod tanqidchilarining shakllanishi Istiqlol yillarida yangi avlod adabiyotshunoslari yetishib chiqdi. Ular:

Yangicha fikrlash; global adabiy nazariyalar bilan tanishlik;

milliy adabiy jarayonni jahon kontekstida ko'ra olish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Bu holat adabiyotshunoslikning professional darajada yuksalishiga sabab bo'ldi.

Bundan keyin milliy nasrimizdagi tamoyillar, uning uslublari qay darajada rivojlanishi kerak? Mazmun har bir yozuvchining o'z ixtiyorida, lekin o'zbek nasrining san'at yo'li qayoqqa qarab ketayapti? Adabiyotimizdagi mahorat masalasi, san'atkorlik masalasi qanday? Bugun biz mana shu masalalarni tahlil etishga, ana shu savollarga javob berishimiz lozim.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshevning ta'kidlashicha adabiyot bozorga moslashib bormoqda, bozorbop badiiy mahsulotlar ko'plab yaratilayotgani, milliy adabiyotimizda sarguzasht, sirli voqealarni tasvirlashga moyillik kuchayib borayapti.

Adabiyot-adabiyotga da'vogardir. Adib esa betizgin vaqtni tizginlashga urinadigan zot. Birgina 1998 yilda hikoyalarga nisbatan qissalar ko'proq yozildi. 1998 yilda o'n sakkizta qissa chop etilgan. O'sha qissalarning yettitasi sof detektiv janrda, yana to'rttasida shunday unsurlar yetakchilik qiladi. Inson tuyg'ularini tadqiq qilishga, uning taqdiridagi murakkabliklarni mahorat bilan ko'rsatishga erishilgan qissalar juda oz.

Shu narsani ham alohida qayd etish lozimki, istiqlo davri adabiyoti istiqloldan keyin paydo bo'lgan, deb qarash unchalar to'g'ri emas. Bu davr adabiyoti qanchalar g'alati ko'rinmasin, istiqloldan oldinroq shakllana boshlagan va muayyan darajada mustaqilligimizning amalga oshishiga ham ta'sir ko'rsatgan, deyish mumkin. Chunki millat miqyosida ro'y bergan har qanday ijtimoiy hodisa avval millatning ruhida, shuurida, tafakkurida sodir bo'ladi va so'nggina kelajakka aylanadi. Milliy ruhiyatdagi evrilishlar esa ma'lumki, adabiyotda bo'y ko'rsatadi. Shu ma'noda istiqlo davri mustaqillik adabiyotining mevasi sifatida paydo bo'ldi, deyish ham mumkin ("O'zAS", 2000 yil 4 avgust).

Mashrab Boboyevning ta'kidlashicha, bugunning qahramoni ham har bir davrning qahramoni singari inson, jonli inson bo'lishi kerak. Sho'rolar davridagi qishloq hayotidan yoz, sanoatni yoz, degan mafkuraviy yo'riqlar yo'q. Mana shu yo'riqlar juda ko'p hollarda

yo'zuvchilarimizni yo'ldan adashtirgan, ular zamon talabiga javob beraman, deb sun'iy qahramonlar siymosini chizgan edi. Endi, yana takrorlanmaydi, zamon o'zgardi.

Biroq, Inson, jonli inson siymosini chizar ekanmiz, baribir, uning qay millat, qanday yurt, qaysi davrga mansub ekanini unutmasligimiz lozim. Mustaqillik tuyg'usi, yurtni e'zozlash, yurtga fidoyilik tuyg'usi har bir qahramonning e'tiboriga aylanishi kerak. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish zarurati bor. Men ko'pgina asarlarda qahramonlar muallifning "topshirig'ini bajarib", u chizib bergan chiziqdan chiqmay, demakki, sun'iy harakat qilishini kuzatganman. Qahramon o'zi tabiiy harakat qilsin, biz buni qog'ozga tushiraylik. Qahramon o'zini Mustaqil O'zbekiston fuqarosi sifatida tutsin, uni libosidagina emas, yuragidan, madaniyatli, muomilasidan ham o'zbek sifatida taniylik.

Toir Islomov: Bugungi adabiy-tanqidning asosiy vazifasi bugunning qahramonini payqashda, ko'pchilik ichidan ajrata bilishda, deb biroz kesatqli tarzda "bugunning qahramoni kim?" degan savolga javob beradi:

Eshikdan kirib kelgan bemorning hamyoniga emas, dardiga e'tibor qilgan shifokor, operatsiya lozim taqdirda avval haq masalasini hal qilishni o'ylab o'tirmay ishga kirishadigan jarroh bugungi kunning qahramoni. Tarozidan urmagan, birni o'nga pullayotgan insofli tijoratchi bugunning qahramoni.

Katta ishda ham, mayda ishda ham qonun ustuvorligini birday turib himoya qila oladigan qozi yoki mirshab, muruvvatli, sahovatli bobodehqon, o'z mansabini suiiste'mol qilmaydigan, fuqarolar manfaatidan ko'z yummaydigan hokim, ko'cha-kuylarimizga ko'rk baxsh etadigan muhtasham binolarni, yangi avtomobillar va samolyotlarni yaratayotgan ishchi-muhandislar, qo'yadigan bahosiga pul olmaslikni jasorat emas, hayot tarzi deb his etuvchi oliy maktab mualliflari bugunning qahramoni... ("O'zAS" 2000 yil 7 iyul).

Mustaqillik davri adabiyotida N.Eshonqul, Salomat Vafo, Ne'mat Arslonov, Sotiboldi Topiboldiyev, Jamila Ergasheva kabi modern usulida asar bitayotgan adiblarning ham o'z o'rnini bor. Endilikda moderncha adabiyotga ishtiyoq va did ham o'quvchilarda tez shakllanib borayotganligini ham alohida qayd etish lozim bo'ladi.

Modernizm dastlab XIX asr avvalida G`arbiy Ovro`pa zaminida paydo bo`ldi. U G`arb kishisi ruhiyatida ro`y bergan ma`naviy inqirozning adabiyot va san`atdagi aks-sadosi degan qarashlar ham eshilib qoladi.

Kafka, Joys va M.Prust singari bu yo`lning daholari bor. Modernizm jahonni zabt etdi, realizm go`yo eskirdi, degan qarashlar ham, bahsli munozaralar ham bo`lib turibdi. Mas, Suvon Meli (“O`zAS”, 2000 18 avgust). Chunki, zamon, dunyo evrildi, faqat manguklar yashab qolishiga ishonidik. Xullas, Ovrupa realizmidan ham uzoqlashib, boshqacha, ya`ni donishmandona bir adabiyotga yetishamiz. Mohiyat, maqsad aniq, mag`zi to`la adabiyot yaratiladi. Bu esa o`sha “Chor darvish”, Sa`diyning “Guliston”, “Bo`ston”, Faxriddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va boshqa klassiklarimizning yo`lini davom ettiradigan adabiyot bo`ladi.

Rasul Gamzatovda “Mahorat, sen qanisan, qaylarda qolding? Senga yetishguncha yemirilib bo`ldim” degan bir she`r bor. Ha, shoir aytgandek mahorat doimo adabiy tanqidchilikning bosh mavzusi bo`lib qolaveradi.

SH.Xolmirzayevning fikricha: 70 yillik sho`rolar davrining o`z qonuniyatlari, o`z yo`nalishlari bor edi. O`sha vaqtdagi asarlar ham boshqacha bo`lishi kerak edi... Shunisi qiziqki, u adiblar adabiyotning bosh mavzui inson ekanligini tushunishmadi. Bosh mavzu mafkura deb bildilar.

Vohalanki, Sharq adabiyotida komil inson tushunchasi bor. Bugungi kunda biz, bizdan keyingi avlod, mana shu narsani anglab, miyaga quyib olish kerakki, o`shalarning shunday bo`lishi sabablarini tahlil etib, teran tushunib, demak, undan kerakli xulosalar qilish lozim.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri tanqidchiligi milliy adabiyotning bugungi taraqqiyotini belgilayotgan asosiy intellektual kuchlardan biriga aylandi. U milliy o`zlik, ilmiylik, ijod erkinligi, tarixiy haqiqatni tiklash va badiiy-estetik mezonlarni ustuvor qo`yish orqali o`zbek adabiy tafakkurining yangi sifat bosqichga ko`tarilishida hal qiluvchi omil bo`lib xizmat qildi

Istiqlol davri tanqidchiligi o`zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida tamoman yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda tanqidchilik mafkuraviy cheklovlardan butunlay xoli

bo‘lib, asarlarni baholashda badiiy-estetik mezonlar, ijodkor shaxsining erkin fikri va milliy o‘zlikni anglash tamoyillari ustuvor o‘rin egalladi. Mustaqillik tufayli adabiy merosga yangicha qarash, taqiqlangan ijodkorlarning nomini qayta tiklash, ularning asarlarini adolatli ilmiy tahlil etish imkoniyati yaratildi. Tanqidchilarning ilmiylik, xolislik, dalillilikka asoslangan yondashuvi adabiyotshunoslik tadqiqotlarining professional darajada yanada chuqurlashishiga xizmat qildi.

Shuningdek, istiqlol davri tanqidchiligi adabiy jarayonni global kontekstdagi o‘zgarishlar bilan uyg‘un ko‘ra boshladi. Komparativistika, intertekstual tahlil, modernistik va postmodernistik yondashuvlarning kirib kelishi o‘zbek adabiyotini jahon adabiy meridiani bilan bog‘lovchi ilmiy maydon yaratdi. Tanqidchilikning asosiy vazifasi — ijodkor bilan o‘quvchi o‘rtasidagi ongli muloqotni ta‘minlash, adabiy tafakkurni boyitish va yosh avlodning estetik dunyoqarashini shakllantirish yanada takomillashdi.

Istiqlol davri tanqidchiligi o‘zbek adabiy tafakkurining yangilanishi, erkinlashuvi va chuqurlashuvida g‘oyat muhim bosqich bo‘ldi. Mazkur davrda adabiy tanqidchilik avvalgi mafkuraviy cheklovlardan xoli bo‘lib, badiiy asarni tahlil qilishda erkin fikr, ilmiylik, xolislik va estetik mezonlarni ustuvor qo‘ydi. Mustaqillik sharoiti adabiy jarayonning tabiiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratdi va tanqidchilikning asosiy vazifasi adabiyotning ichki qonuniyatlarini ochib berish, ijodkor shaxsining badiiy dunyosini chuqur talqin qilish, jamiyatning ma‘naviy ehtiyojlari bilan uyg‘un holda tahlil yuritishdan iborat bo‘ldi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Qo‘shjonov, M. O‘zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2005.
3. Nazarov, B. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Sharipov, A. Adabiy tanqid va uning asosiy yo‘nalishlari. — Toshkent: Akademnashr, 2014.
5. Jo‘rayev, H. Mustaqillik davri adabiy jarayoni. — Toshkent: Universitet, 2012.
6. Mamajonov, R. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi masalalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

7. Abduazizov, A. Adabiy jarayon va tanqid. — Toshkent: Yozuvchi, 1999.
8. Qobulov, M. Cho‘lpon va istiqlol davri talqinlari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
9. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Talqin, 2020.
10. Begmatov, E. O‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyoti. — Toshkent: Akademnashr, 2017.
11. Rajabov, U. O‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik masalasi. — Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
12. Ziyoev, H. XX asr o‘zbek adabiyoti talqinlari. — Toshkent: Universitet, 2013.
13. Qayumov, A. Adabiy merosni o‘rganish tamoyillari. — Toshkent: Sharq, 2006.
14. O‘rinboyev, A. Adabiy jarayonda yangilanish va izlanishlar. — Toshkent: Akademnashr, 2021.
15. Abdullayev, A. Mustaqillik davri she’riyati va tanqid. — Toshkent: Fan, 2018.